

MANTIQIY MASALALAR YORDAMIDA O‘QUVCHILARNING IJODIY FAOLIYATINI O‘STIRISH

Ziyodullayeva Sitorabonu Ubaydullo qizi

Buxoro davlat universiteti Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda matematika fanidan tashkillashtiriladigan darslarning mantiqiy tafakkurini shakllantirish omillari, didaktika ta‘lim psixologiyasi yutuqlaridan foydalanadi. Shuningdek, zamonaviy va innovatsion darslarni tashkil qilishda foydalanish mumkin bo‘lgan metodlar hamda ularning o‘tkazish tartibi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: tahliliy-sintetik faoliyat, zamonaviy didaktika, qiyoslash, umumlashtirish, mavhumlashtirish, aqliy faoliyat, individual, tipik xususiyatlar, fiziologik, dialektika.

So‘nggi yillarda ta‘lim sohasining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo‘yicha farmon va qarorlar qabul qilindi va bunga asosan deyarli barcha dastur hamda darsliklar asosiga o‘zgartirishlar kiritildi.

Bunga sabab bo‘lgan eng katta omil shunda ediki, bizning milliy o‘quv dasturimiz xalqaro talablarga hamda chet elning ko‘zga ko‘ringan ta‘lim jarayonlari natijalariga tenglasha olmasligi edi.

Darsliklar kesimida boshlang‘ich sinflar matematika darsligini oladigan bo‘lgan, avvalgi darsliklardan tubdan farq qiladi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Boisi, darslikda berilgan topshiriqlar o‘quvchini nafaqat hisob-kitobga, balki mavzularni oson anglashga, mantiqiy va tanqidiy fikrlashga undaydi.

Darslikda berilgan rasmlar, chizmalar va jadvallar juda ham qiziqarli, shu bilan birgalikda o‘quvchining tushunishi uchun sodda va aniq shaklda berilganligi o‘quvchi hamda pedagoglar uchun qulaylik tug‘diradi.

Tadqiqotlarga ko‘ra, hisob-kitobni yaxshi o‘zlashtirgan o‘quvchidan ko‘ra, matematik mushohada hamda mantiqiy fikrlash ko‘nikmasiga ega o‘quvchi hayotda ko‘proq muvaffaqiyat qozonar ekan. Bu ko‘nikma orqali odam matematik bilimlarini hayotda qo‘llaydi, turli vaziyat va muammolarga tez yechim topadi.

Shuni hisobga olib, Finlyandiya, Singapur, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya va milliy tajriba asosida tayyorlangan Milliy o‘quv dasturida ham o‘quvchining matematik tafakkurini rivojlantirishga e‘tiborni qaratilgan.

Shuningdek, ilg‘or o‘quv dasturi asosida yaratilgan 1-sinf Matematika darsligida ham ilk bor o‘quvchilarni matematik mushohadaga chorlaydigan mashg‘ulot va topshiriqlarga keng o‘rin berildi.

1-sinf Matematika darsligi Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari uchun darslik hisoblanib, Ta‘limni rivojlantirish Markazi huzuridagi Aniq fanlar bo‘yicha ilmiy-metodik kengash tomonidan tavsiya etilgan.

I.V.Repyova. Toshkent – 2023. Bu darslik 4 qismdan iborat, ya‘ni har bir chorak uchun alohida-alohida kitob tarzda ishlab chiqarilgan. Barcha qismlardagi taqrizchilar bir xil: N.M.Usmanova, O.Sh.Yevstafyeva, M.M.Umarova, M.I.Xujayeva.

1-sinf Matematika darsligining barcha qismlarida yozma bajarish uchun topshiriqlar, og‘zaki bajarish uchun topshiriqlar, qalam bilan ishlash uchun topshiriqlar, juft bo‘lib ishlash uchun

topshiriqlar hamda o'ylang degan topshiriqlar berilgan. O'ylang deb berilgan topshiriqlarning barchasi Mantiqiy topshiriqlar hisoblanadi.

Darslikning har bir qismlarini birma-bir tahlil qilib ko'rdim va mantiqiy masalalarga doir topshiriqlar ustida alohida ishladim.

1-sinf Matematika darsligining 1-qismida jami 287 ta topshiriq bor ekan. Jami topshiriqlar ichidan 46 tasi mantiqiy topshiriqlarga misol bo'la oladi. Men mana shu mantiqiy topshiriqlarni birma-bir ko'rib chiqdim va har bir topshiriqda savol nimani so'rayotganiga qarab ularni o'z ichida 4 guruhga ajratdim:


1. Mantiqiy ketma-ketlikni topishga doir mantiqiy topshiriqlar.
2. Yosh belgisini topishga doir mantiqiy topshiriqlar.
3. Narsalarning son-sanog'ini topishga doir mantiqiy topshiriqlar.
4. Shakl belgisini topishga doir mantiqiy topshiriqlar.

1-sinf Matematika darsligimizning 1-qismida berilgan 46 ta mantiqiy topshiriqlardan 18 tasi **mantiqiy ketma-ketlikni topishga doir mantiqiy topshiriqlar** hisoblanadi.

Masalan:

1-sinf Matematika darsligimizning 1-qism 43-betdagi 6-topshiriq:

6. Rasmdagi yordamchi chiziqlardan foydalanib, maqolni toping.



The grid contains the following letters:

O	O	L	A	E
D	B	I	M	L
O	B	L	A	G
R	U	Z	N	A

Bu topshiriqni o'quvchilar mantiqan o'ylash orqali topa oladilar. Mantiqiy ketma-ketliklar sterelkalar yordamida ko'rsatilgan. Mana shu sterelkalarni pastdagi harflar bilan to'g'ri ketma-ketlikda bog'lay olishimiz kerak. To'g'ri bog'langan harflarni bir-biri bilan bog'lab o'qiganimizda: "Odobli bola manzur elga" – degan maqol hosil bo'ladi.

Yoki 39- betdagi 9-topshiriq:

9. Rasmlar bilan sonlar to'g'ri bog'langanmi?



The objects shown are: 1. 5 green balls, 2. 3 books, 3. 2 beach balls, 4. 1 red ball, 5. 2 tennis balls.

Bu topshiriqni ham o'quvchilar mantiqan o'ylash orqali va ketma-ketlikni o'z o'rnida qo'yish orqali topa oladilar. Bunday mantiqiy topshiriqlarni topishda mantiqiy fikrlash birinchi o'rinda turadi. Yuqorida berilgan topshiriqda 1-sinf o'quvchilariga qiyinlik tug'dirmasligi uchun har bir raqamdan chiqqan iplarni har xil rangda tasvirlagan. Har bir rang o'zi bog'langan narsaga to'g'ri bog'langan.

1 raqamidagi qora ip arg'imchoqqa borib to'g'ri bog'langan.

2 raqamidagi sariq ip koptokka borib to'g'ri bog'langan.

3 raqamidagi ko'k ip kitobga borib to'g'ri bog'langan.

4 raqamidagi yashil ip sport kalsosiga borib to'g'ri bog'langan.

5 raqamidagi qizil ip tennis to'piga borib to'g'ri bog'langan.

1-sinf Matematika darsligimizning 1-qismida berilgan 46 ta mantiqiy topshiriqlardan 3 tasi **yosh belgisini topishga doir mantiqiy topshiriqlar** hisoblanadi. ($46-18-3=25$)

Masalan:

1-sinf Matematika darsligimizning 1-qism 31-betdagi 8-topshiriq:



8. Uch yil avval Aziz Loladan 1 yosh katta edi. Hozir Aziz Loladan necha yosh katta?



Bu topshiriqni faqat mantiqiy fikrlash orqali yechish mumkin. Mantiqiy fikrlash orqali bu topshiriqni biz bo'lajak o'qituvchilar o'quvchilarga tushuntirishimiz kerak. O'quvchilar yanayam oson bu topshiriqni tushunishlari uchun biz o'quvchilarimizning opasi, akasi, singlisi yoki ukasini misol tariqasida olib tushuntiramiz. Necha yil avval va nechi yil keyin bo'lishiga qaramay inson o'rtasidagi yoshlari farqi o'zgarmasligini o'quvchilarga uqtirishimiz lozim. Har yili inson o'sadi. O'sgan sari ulg'ayadi, katta bo'ladi. Ammo yil hamma uchun barobar. Bir yil o'tyaptimi, demak, har bir o'quvchi bir yoshga katta bo'lyapti. Lekin o'rtasidagi yosh farqi o'zgarmaydi.

1-sinf Matematika darsligimizning 1-qismida berilgan 46 ta mantiqiy topshiriqlardan 18 tasi **narsalarning son-sanog'ini topishga doir mantiqiy topshiriqlar** hisoblanadi. ($46-18-3-18=7$)

Masalan:

1-sinf Matematika darsligimizning 1-qism 32- betidagi 4-topshiriq:

4. Stolda 2 ta olma bor. Ulardan bittasini teng ikkiga bo'lishdi. Stolda nechta olma bor?



Bu topshiriqni o'qigandan so'ng bir qaraganda 3 ta olma deb javob berish mumkin. Ammo mantiqiy fikrlash kerak bu yerda. Bitta olmasi teng ikkiga bo'ldik. Buning natijasida ikkita yarim bo'lak olma hosil bo'ldi. Savol esa bizdan nechta olma bor deb so'rayapti. Javob o'zgaraydi: 2 ta .

1-sinf Matematika darsligimizning 1-qismida berilgan 46 ta mantiqiy topshiriqlardan 7 tasi **shakl belgisini topishga doir mantiqiy topshiriqlar** hisoblanadi.

Aqliy faoliyat usullari o'quv ishlari usullari bilan uzviy bog'liqdir. O'quv ishlari usullari muayyan amallar, ko'rsatmalar, tavsiyalar, qoida va hokazolar shaklida ifodalanadi. Ularning vazifasi - muayyan masalalarni hal etishda o'quvchilar tashabbusini bo'g'may, umumiy yo'nalish berishdir.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning aqliy rivojlanishi, ularning faol va mustaqilligi, ijodiy yondashuv ko'p jihatdan o'quvchilarning o'quv ishlari va aqliy faoliyat usullarini egallaganligiga bog'liq.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yunus, Y., & Yarashov, M. (2023). Effectiveness of experimental work aimed at forming general labor skills in students based on gender equality and differences. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 420, p. 06011). EDP Sciences.
2. Jobir o'g'li, Y. M., & Roziyabonu, S. (2022). 1-SINF MATEMATIKA DARSLARIDA GEOMETRIK MATERIALLARNI O'RGATISH. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, 1(9), 132-137.
3. YARASHOV, M. (2022). Characteristics of International Integration of Sciences in Primary Schools. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 23(23).
4. Ярашов, М. Д., & Хамдамова, Х. (2022). МЕТОДИКА РАБОТЫ НАД РЕЧЬЮ УЧАЩИХСЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, 1(9), 138-143.
5. Jobir o'g'li, Y. M., & Maftuna, S. (2022). BOSHLANG 'ICH SINFLARDA TA'LIM MAZMUNINING TAVSIFI. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, 1(9), 144-147.
6. Jobirovich, Y. M. (2023). BUILDING COMPETENCES IN ORGANIZING PRIMARY EDUCATION CONTENT USING DIGITAL TECHNOLOGIES. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, 2(5), 763-766.
7. Jobirovich, Y. M. (2023). EXPRESSION OF DIDACTIC GAMES IN PRIMARY EDUCATION THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, 2(5), 93-97.
8. Yarashov, M. (2023). BOSHLANG 'ICH TA'LIM FANLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI INTEGRATSIYALASH. *Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения*, 2(8), 46-49.
9. Jobirovich, Y. M. (2022). BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARINI INTEGRATSIYALASHGAN HOLDA OLIB BORISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 2(12), 19-23.
10. YARASHOV, M. (2022). BOSHLANG 'ICH TA'LIMNING DARS JARAYONLARIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TADBIQ ETISH VOSITALARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 15(15).
11. YARASHOV, M. (2023). Methodology of Application of Digital Technologies in Primary Education. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 30(30).
12. YARASHOV, M. (2023). The Place of Digital Technologies in the Education System. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 30(30).

13. Jobirovich, Y. M. (2022). TOOLS OF USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN PRIMARY EDUCATIONAL COURSES. *EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE*, 2(4), 119-123.
14. Hamroyev, A. (2022). RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TA'LIM JARAYONIGA TATBIQ ETISH ZAMONAVIY TA'LIM KONSEPSIYASINING ASOSI. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 35-37.
15. Оллокова, У. (2023). РАЗВИТИЕ ЖИЗНЕННЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ ПОСРЕДСТВОМ УЧЕБНИКОВ НОВОГО ПОКОЛЕНИЯ. In *Uz-Conferences* (Vol. 1, No. 1, pp. 702-706).
16. Оллоқова, Ў. М. (2023). KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA-O'QUVCHINING MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH OMILI: Olloqova O'g'iljon Mamanazarovna Buxoro davlat universiteti boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (8), 183-187.
17. YUSUFZODA, S. МАТЕМАТИКА DARSLARIDA MANTIQUIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH O'QUV JARAYONI SIFATINI OSHIRISH ASOSI SIFATIDA. *EDAGOGIK AHORAT*, 59.
18. Yusufzoda, S. (2024). BIRINCHI SINFDAN GRAFIK MALAKALARNI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 45(45).
19. Jobirovich, Y. M. (2021). Advantages of the introduction of digital technologies into the educational process. *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT*, 7(1), 17-20.
20. Jobirovich, Y. M. (2022). EFFECTIVENESS OF USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN EDUCATIONAL SYSTEM. *EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE*, 2(4), 124-128.

